

# NEMIS TILINI O'QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUV

**Zakirova Sohiba Abdusaliyevna**

Nemis tili amaliy fanlar kafedrası o'qituvchisi

## ANNOTATSIYA

Multimedia texnologiyalaridan foydalanish o'qituvchilarning darslarni yanada rang-barang va qiziqarli o'tishiga yordam beradi. Mazkur maqolada nemis tilini o'qitishda zamonaviy dasturlarning ahamiyati, uslub va yondashuvlari, ularning o'quv jarayoniga ta'siri haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** chet tili, kompetensiya, platforma, metodlar, nutqiy ko'nikma, dialogli savol-javob, muloqot.

## АННОТАЦИЯ

Использование мультимедийных технологий помогает учителям сделать уроки более красочными и интересными. В данной статье говорится о значении современных программ, методов и подходов в обучении немецкому языку, их влиянии на учебный процесс.

**Ключевые слова:** иностранный язык, компетенция, платформа, методы, навыки говорения, диалог вопросов и ответов, общение.

## ABSTRACT

The use of multimedia technologies helps teachers make lessons more colorful and interesting. This article talks about the importance of modern programs, methods and approaches in teaching the German language, and their impact on the educational process.

**Key words:** foreign language, competence, platform, methods, speaking skills, dialogue question-and-answer, communication.

Bugungi kunda jamiyatimizda til o'rganishga bo'lgan qiziqish kun sayin ortib bormoqda. Shu bilan birgalikda, til o'qitish jarayonida ham sezilarli o'zgarishlar kuzatilmoqda. Bilamizki, Yevropaning eng ko'p tarqalgan va nufuzli tillaridan biri bo'lgan nemis tilini o'rgatish ham alohida ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy texnologiyalar rivojlanib borgan sayin talabalarning ta'lim olishi ancha qulay va rang-barang bo'lyapti. Negaki, talabalar endilikda darslik, qog'oz

materiallarga asoslangan manbalar, ma'ruzalar bilan ishlash bilan cheklanibgina qolmay, darslarini yanada qizqarliroq qilish uchun onlayn resurslar, til o'rganish bo'yicha dastur va ilovalar, video konferensiya va boshqa vositalardan foydalanishi mumkin. Chet tillarini o'qitishda zamonaviy yondashuv ( ingliz tilida "modern teaching") haqida to'xtalishdan oldin, yondashuv so'ziga alohida izoh beramiz. Yondashuvning asosiy ma'nosi, o'rganish va o'rgatish jarayonini o'z ichiga olgan tizimli va metodologik yakunlar bilan amalga oshirishdir. Zamonaviy yondashuv esa o'rganishning yangi, innovatsion, texnologik ilovalarini o'qitish modeli va usullarini anglatadi.


Nemis tilini o'qitishda zamonaviy yondashuv quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

- Texnologiyalardan foydalanish: Zamonaviy o'qitish usullari, onlayn ma'lumot bazalari – platformalar, interaktiv darsliklar va boshqa texnologiya(internet, kompyuter, smartfon)lardan foydalangan holda o'quvchilarga qiziqarli va samarali ta'lim berish mumkin.
- Hamkorlik va guruh ishi: Bunda o'quvchilarning o'zlari boshqa o'quvchilar bilan birgalikda mashg'ulotlarda ishtirok etish, fikrlarini erkin bayon qilish, rag'batlantirilish orqali o'zlashtirishini oshirishi mumkin.
- Shaxsiy o'rganish va maqsadlar: Bunda o'quvchining ushbu tilni o'rganishdan shaxsiy maqsadlarini aniqlash, ularga qarab shaxsiy rivojlanish yo'nalishini o'zlashtirishi uchun ma'qul bir qator dasturlar ishlab chiqiladi.
- Amaliyotda o'qitish metodlari: O'quvchilar o'zlarining til bilimlarini amaliy mashg'ulotlar orqali samarali oshirishlari va foydalanishlari mumkin.
- Ko'nikmalarni o'zlashtirish: O'quvchilarning tilni amaliy ravishda foydalanish va o'zgarishlar asosida yaxshi tushunishini ta'minlaydi. Bunda o'z-o'zini baholashning o'rni katta, ya'ni mushohada qilinadigan maqsasdli sinovlar orqali o'zidagi o'sishni kuzatish.

Ushbu aspektlar nemis tilini samarali ravishda o'rganishni ta'minlaydi va ularni XXI asr texnologiyalari va ma'naviyatiga tayyorlashda muhim rol o'ynaydi.

Nemis tilini o'qitishning zamonaviy usullari quyidagi natijalarni ko'rsatmoqda: Jonli dialoglar, rolli o'yinlar, va boshqa kommunikativ faoliyat bilan shug'ullanadigan o'quvchilar muloqotda til ko'nikmalarini yaxshi namoyish etadilar. Zamonaviy texnologiyalar integratsiyalashgan chet (nemis) tili darsi yanada interaktiv va qiziqarli bo'ladi. Onlayn manbalar va ilovalar talabalarga o'zlari uchun qulay vaqtda mustaqil ravishda tilni o'rganish va bilimlarini chuqurlashtirish imkoniyatini beradi. Hamkorlikda o'qitish, loyiha metodologiyasi, yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish, internet resurslari kabi zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonida shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirishga, talabalarning qobiliyatlari, ularning bilim olish darajasi va o'zlashtirish darajasini hisobga olgan holda o'qitishni individuallashtirishga yordam beradi[1].

Nemis tilini o'rganishga bo'lgan shaxsiy qiziqish ta'lim muvaffaqiyatining asosiy omili bo'lgani sababli ham, darsda kompyuterlardan foydalanish, o'qishga bo'lgan qiziqishni oshirish vositalaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda, Interaktiv dasturlar mavjud bo'lib, ular topshiriqlarni bajarishda talabaning qo'lga kiritgan muvaffaqiyatiga ham, muvaffaqiyatsizligiga ham javob beradi. Kompyuterda o'qitish, o'quv vazifalarini qiyinchilik darajasiga qarab tartibga solishga, to'g'ri qarorlarni rag'batlantirishga va noto'g'ri qarorlarni tanqid qilishga imkon beradi. O'quv jarayonida kompyuterdan foydalanish ko'lami juda katta: o'quvchilarni har qanday grammatik, leksik, fonetik mavzu bo'yicha nazoratdan o'tkazishga, ularning shaxsiy xususiyatlarini inobatga olgan holda, kerakli o'quv materialini kerakli bilim darajasigacha, ma'lum ko'nikmalarni o'rgatishgacha bo'lgan imkoniyatni yaratadi[2].



Nemis tilini o'qitishda kompyuter asosiy vositalardan biridir. Kompyuter dasturlari va disklari haqida yetarlicha ma'lumotga ega bo'lish va undan qanday foydalanish mumkinligini bilish katta foyda beradi. Ayniqsa, o'sha disk mavzuga aloqador bo'lsa, ularni sinchkovlik bilan eng mosini tanlab, o'quv materiallardan o'quvchilar qiziqishiga qarab foydalanish bilan katta motivatsiyaga erishish mumkin. Nemis tilini o'qitishda qo'yidagi mashqlar va metodik usullardan foydalanish mumkin, masalan:

Nutqiy ko'nikma - dialogni o'zlashtirish uchun mashqlar. Ko'pincha bunday o'quv dasturlarida bu jarayon ustidan o'zini nazorat qilish dasturlashtirilgan. Ishning hos bo'lgan turlari, bular masalan:

1. Dialogni bir vaqtning o'zida har bir talaffuz qilingan jumlaning boshqa rangda ajratib ko'rsatish tarzida o'qish.
2. Tanlovli javob bilan dialogni tinglash. Kompyuterga javob berish uchun talaba taklif qilingan variantlardan birini tanlaydi. Bu mashqlar imtihon topshirilgandan keyin beriladi.
3. Mustaqil tuzilgan javob bilan muloqotga kirishish. Bunday muloqot kompyuter tomonidan berilgan har bir savolga barcha mumkin bo'lgan javoblarni o'z ichiga olgan o'quv dasturi bilan ta'minlanadi, shunda u javobning to'g'riligini "tan olishi" va "baholashi" mumkin.
4. Dasturlashtirilgan javob bilan muloqot. Bunday dialogda bir nechta javoblar taklif etiladi, ularning biri yoki boshqasi bilan tanlab to'g'ri munosabat bildirishdir. Agar talaba noto'g'ri javobni tanlagan bo'lsa, unda dasturda nafaqat o'quvchini to'g'rilabgina qolmay, balki uni hazil rejimida ham bajaradigan imkoniyati mavjud. Bunday

mulohazalar tinglovchining ijobiy reaksiyasini keltirib chiqaradi va kerakli mahoratni yanada barqarorlashtirishga xizmat qiladi.

5. Dialogda savol-javob. Talaba ishining mohiyati dialogning bir qismini takrorlashda ishtirok etishdan iborat bo'lib, dialogda mavjud bo'lgan va kompyuter ekranida dialog oynasida ko'rsatilgan til materialini asos qilib oladi. Dialogning nutqiy materiali yozib olinadi, uni tinglash mumkin, bu suhbatni qayta ishlab chiqarish sifatini baholaydi. Shu bilan birga, o'quv dasturi o'quvchining muloqotda to'liq ishtirokini simulyatsiya qiladi[D.Dadajonova].

Xulosa qilib shuni aytadigan bo'lsak, insonlarning ta'lim natijalariga yangi qarashlari yangi texnologiyalarni rivojlantiradi va eskirgan texnologiyalardan voz kechishga undaydi. Bugungi kunda kompyuter dasturlari an'anaviy ta'lim tizimini oradan chiqarib bormoqda. Natijada, xorijiy tillarni, xususan, nemis tilini o'qitish kompetensiyasi, o'quvchining o'sha til bo'yicha bilim, ko'nikmasini amaliyotda qo'llay olishni shakllantiradi.

#### **Foydalanilgan adaboyotlar:**

1. Axmedova S.A. NEMIS TILINI O'QITISH METODLARI. British International Science Conference.
2. Dadajonova D.A. NEMIS TILINI O'QITISHDA ZAMONAVIY DASTURLAR HAMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR SAMARADORLIGI. International Multidisciplinary Scientific Conference on Educational Advancements and Historical Developments. 9-b
3. <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/download/27961/28786/32162>
4. <https://interonconf.org/index.php/iisrc/article/download/5975/5192/5079>
5. <https://bestpublication.org/index.php/ozf/article/view/5324/5573>